



JINOYAT VA JAZO: RASKOLNIKOVNING RUHIY KECHINMALARI VA PSIXOLOGIK TALQINI

Kamoldinova Diyora Jaloliddin qizi

Ilmiy raxbar: Pedagogika va psixologiya va jismoniy madaniyat-
kafedrası p.f.f.d (PhD)

Abdullayeva Rayona Adxamjon qizi

Qo'qon Universiteti Andijon Filiali

Tibbiyot fakulteti talabasi

abdullayevarayona99@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18372081>

Annotatsiya: Ushbu maqolada F.M. Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo" asari inson ruhiyatining murakkabligi, ichki ziddiyatlar va axloqiy tanlovlarni chuqur ochib beradi. Asarning bosh qahramoni Raskolnikov — o'zini "maxsus inson" deb biladigan, jamiyat qoidalaridan ustun turishga intilgan shaxsdir. Asardagi uning ruhiy kechinmalari va psixologik jarayoni zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan shaxsiyat buzilishi sifatida talqin qilinadi. Raskolnikov jinoyat qilishdan oldin o'zini aqlli va huquqiy jihatdan adolatli deb biladi, ammo qotillikdan so'ng ichki ziddiyat va guilt hissi uni doimiy ruhiy zo'riqishga olib keladi. U har bir odamni tahdid sifatida qabul qilish, harakat va so'zlarni noto'g'ri talqin qilish kabi paranoik fikrlar bilan azoblanadi. Bu holat uning ruhiyatida axloqiy va psixologik stressni kuchaytiradi, uyqusizlik, qo'rquv va ichki iztirob paydo bo'ladi. Shaxsiyatining ichki buzilishi kognitiv dissonans — ongli niyat va axloqiy hissiyotlar ziddiyati orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Raskolnikov o'z jinoyatini oqlashga harakat qiladi, ammo ichki his-tuyg'ular va ruhiy zo'riqish uni tinch qo'ymaydi. Asar davomida uning ruhiy jarayoni asta-sekin o'zgaradi: guilt hissi va ichki ziddiyatlar orqali u o'zini tan oladi, kechirim izlaydi va ruhiy tiklanish jarayoniga kiradi.

Аннотация: В данной статье роман Ф.М. Достоевского «Преступление и наказание» глубоко раскрывает сложность человеческой психики, внутренние конфликты и моральный выбор. Главный герой произведения — Раскольников, человек, считающий себя «особенной личностью» и стремящийся подняться над правилами общества. Его психические переживания и психологический процесс в произведении интерпретируются с точки зрения современной психологии как расстройство личности. Раскольников считает себя разумным и законопослушным до совершения преступления, но после убийства внутренний конфликт и чувство вины приводят его к постоянному психическому напряжению. Его мучают параноидальные мысли, такие как восприятие каждого человека как угрозы, неверное толкование действий и слов. Эта ситуация усиливает морально-психологический стресс в его психике, вызывает бессонницу, страх и внутренние страдания. Внутреннее расстройство его личности отчетливо проявляется через когнитивный диссонанс — конфликт между сознательным намерением и моральными чувствами. Раскольников пытается оправдать свое преступление, но внутренние чувства и психическое напряжение не оставляют его в покое. На протяжении всего произведения его внутренний мир постепенно меняется: испытывая чувство вины и внутренние конфликты, он исповедуется, ищет прощения и вступает в процесс духовного восстановления.

Abstract: In this article, F.M. Dostoevsky's "Crime and Punishment" deeply reveals the complexity of the human psyche, internal conflicts and moral choices. The main character of

the work is Raskolnikov, a person who considers himself a "special person" and strives to rise above the rules of society. His mental experiences and psychological process in the work are interpreted as a personality disorder from the point of view of modern psychology. Raskolnikov considers himself intelligent and legally righteous before committing a crime, but after the murder, internal conflict and a sense of guilt lead him to constant mental tension. He is tormented by paranoid thoughts, such as perceiving every person as a threat, misinterpreting actions and words. This situation increases moral and psychological stress in his psyche, causes insomnia, fear and internal suffering. The internal disorder of his personality is clearly manifested through cognitive dissonance - a conflict between conscious intention and moral feelings. Raskolnikov tries to justify his crime, but his inner feelings and mental tension do not leave him alone. Throughout the work, his mental process gradually changes: through feelings of guilt and internal conflicts, he confesses, seeks forgiveness, and enters into a process of spiritual recovery

Kalit so'zlar :Raskolnikov, Jinoyat va jazo, shaxsiyat buzilishi, ruhiy kechinmalar, guilt hissi, ichki ziddiyat, paranoid fikrlar, qo'rquv, ruhiy zo'riqish, ruhiy tushkunlik, uyqusizlik, ichki iztirob, kechirim izlash, ichki kurash, axloqiy stress.

Ключевые слова: Раскольников, Преступление и наказание, расстройство личности, психологические переживания, вина, внутренний конфликт, параноидальные мысли, страх, психическое напряжение, депрессия, бессонница, внутренние муки, поиск прощения, внутренняя борьба, моральный стресс.

Keywords: Raskolnikov, Crime and Punishment, personality disorder, psychological experiences, guilt, internal conflict, paranoid thoughts, fear, mental stress, depression, insomnia, internal anguish, seeking forgiveness, internal struggle, moral stress.

Jinoyat va jazo" — 1865—1866-yillarda yozilgan Fyodor Dostoyevskining ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-falsafiy romani. Jinoyat va jazo g'oyasi Dostoevskiyda ko'p yillar davomida pishib yetilgan, ammo qahramonning „oddiy“ va „g'ayrioddiy“ odamlar haqidagi g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan markaziy mavzu faqat 1863-yilda Italiyada shakllana boshladi. To'g'ridan-to'g'ri asar ustida ishlashni boshlagan muallif, Marmeladovlar oilasi va mahkumning vahiysi sifatida o'ylab topilgan romani mazmuni haqida hikoya qilingan, tugallanmagan „Mast“ romani qoralamalarini birlashtirdi. Ish jarayonida reja kengaytirildi va syujet yaqinlarini qutqarish uchun lombardchi ayolni o'ldirgan talaba Rodion Raskolnikovning jinoyati asosida qurildi. Shu bilan birga, jinoiy voqea muallif uchun nafaqat mavzu, balki odamni jinoyat sodir etishga undaydigan ijtimoiy holatlar haqida mulohaza yuritish uchun imkoniyat bo'ldi. Shuningdek, odamlar qalbida qanday murakkab „kimyoviy“ jarayonlar sodir bo'lishini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Roman obrazlaridan biri bu 19-asrning ikkinchi yarmidagi katta shahar bo'lib, u yerda hayot to'qnashuvlar va dramalarga to'la. Asar vaqtning taniqli belgilarini qayta tiklaydi, Sankt-Peterburg topografiyasini aks ettiradi. Asardagi Peterburgning iflos ko'chalari ochlik vahsvotorli odamlar, bir biring ko'ngli hayoti tugul xatto kiyimiga ahamiyat bermaydigan insonlar, va qashshoq o'z kiyimidan uyalmay qo'ygan, zehni o'tkir oxirgi payt o'z o'zining aqliga kelgan fikrlardan o'zi ham bazan qo'rqib ketadigan talaba. Men odamlarga yaxshilik qilayapman degan fikri biroz ajoyib, jamiyatdagi sudxo'r, hammaning joniga teggan, iflos ishlar qilgan insonlarni o'ldirish uning uchun insoniyatga yaxshilik har holda raskolnikov shu fikrda. Ammo Inson qilgan jinoyati uchun jazo olmay qolmaydi. Har qanday jinoyatning jazosi bor. Jazoning qay shaklda berilishi esa jinoyat ko'lamiga ko'ra



belgilanadi. Insonning eng katta dushmani uning ichida inson o'zi bilan o'zi butun umr kurashadi, kim g'olib bo'lsa qaysi tomoni ustun kelsa butun umr shuni badalini to'laydi yoki sevgi yoki afsus bilan. Raskolnikov o'z nazdida "hech kimga kerak bo'lmagan palid, zararli bit"ni o'ldirishga jazm qilgan, uning sandig'idan olajak mablag'ni qursog'ini to'ydirishga emas, faqat xo'rlangan va haqoratlanganlarni xalos qilmoq yo'lida ishlatishga niyat qilgan edi. Oqibati nima bo'ldi? Insonning ruhiy holati qanchalik yomon bolmasin, oz qobigiga chirmashmasin, uning ruhiyatiga kiraoladigon uni tushunadigon boshi berk kochadan olib chiqa oladigon yashirin qobigidan halos qiladigon inson albatta boladi. Raskolnikov uchun bu inson Marmeladova edi. U Raskolnikovni fikrini o'zgartirib insonni jazo emas balki tavba poklashi mumkin ekaniga ishontiradi. Raskolnikovni asl xatosi insonni emas insoniylikni o'ldirganida edi, aynan shu sabab ham muallif bu jazo ijrosini intiqlik bilan kutgan menimcha.

Har bir insonning miyasini bir chetida g'imirlab yotgan eng yomon eng chirkin eng axmoqona fikrlar bo'ladi, ammo, bular yuzaga chiqishi uchun bir omil bo'lishi kerak albatta. Insonning eng katta dushmani uning ichida inson o'zi bilan o'zi butun umr kurashadi, kim g'olib bo'lsa qaysi tomoni ustun kelsa butun umr shuni badalini to'laydi yoki sevgi yoki afsus bilan. Raskolnikov qilgan jinoyat — axloqiy jihatdan xato bo'lib, uning ruhiy va psixologik holatiga og'ir ta'sir ko'rsatdi. U o'zini "maxsus inson" deb hisoblab, jamiyat va axloqiy qoidalardan ustun turishga intildi, bu esa uni ichki ziddiyat va kognitiv dissonansga olib keldi. Jinoyat sodir etilgach, Raskolnikov guilt hissi bilan og'irladi, doimiy ichki iztirob, uyqusizlik, ruhiy tushkunlik va paranoik fikrlar bilan azoblandi. Bu holatlar uning shaxsiyatining buzilishi va ruhiy stressining asosiy belgilari sifatida namoyon bo'ldi.

Uning ruhiy holati shuni ko'rsatadiki, insonning egoining haddan tashqari yuqori bo'lishi va o'zini jamiyatdan ustun hisoblashi, hatto ongli qarorlar qabul qilsa ham, axloqiy jihatdan xato harakatlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, Raskolnikovning ichki kechinmalari va ruhiy azobi, uning insoniylik va axloqiy mas'uliyatni anglashga intilishini ko'rsatadi. Jinoyatdan keyin u o'zini tan olishi, ichki kurash va kechirim izlash jarayoni orqali psixologik tiklanish yo'lini boshlaydi, ammo ruhiy stress va guilt hissi to'liq yo'qolmaydi.

Bu holat asarda shaxsiyat buzilishini aniq namoyon qiladi: u o'z fikri va harakatlari bilan ichki ziddiyatga tushadi, ruhiy iztirob va qo'rquvni boshdan kechiradi, paranoid fikrlarga beriladi va axloqiy qarama-qarshilikni his qiladi. Shu tariqa, Raskolnikovning qilgan xatosi va uning natijasidagi og'ir psixologik holat inson ruhiyatining murakkabligi, ichki ziddiyatlar va axloqiy tanlovlarning oqibatlarini yaqqol ko'rsatadi. Dostoyevskiy bu obraz orqali inson ruhiyatining psixologik zaifligi va ichki kechinmalarning kuchini chuqur tasvirlaydi. Raskolnikov shaxsiyatining psixologik tuzilishi

Raskolnikovning ruhiyati zamonaviy psixologiya metodlari bilan tahlil qilinsa, u quyidagi xususiyatlarga ega:

- Shaxsiy identitetning ziddiyati:
- U o'zini jamiyatdan yuqori, "maxsus inson" deb hisoblaydi.
- Shu o'ziga xoslik fikri uni jinoyat qilishga undaydi.
- Psixologik tahlilda bu — ego va superego ziddiyati.

Paranoik fikrlar:

-Qotillikdan keyin Raskolnikov har bir odamni kuzatmoqda, politsiya yoki tanishlar uni aniqlashidan qo'rqadi.

-Psixologiyada bu — haddan tashqari shubha va xavotir bilan bog'liq paranoik reaksiyalar, u stress va guilt (ayb hissi) bilan kuchayadi.

Ichki ziddiyat va ruhiy zo'riqish:

-U o'z jinoyatini oqlashga harakat qiladi, ammo ichki his-tuyg'ular uni tinch qo'ymaydi.

Zamonaviy psixologiyada bu — kognitiv dissonans: ongli niyat va axloqiy hissiyotlar ziddiyati.

Guilt va afsus hissi:

Raskolnikov o'z harakatlarini rad etadi va ruhiy stressga tushadi. Bu holat — depressiv simptomlar va ruhiy tushkunlik sifatida tavsiflanadi.

Zamonaviy psixologiya Raskolnikov ruhiyatini quyidagicha tahlil qiladi:

-Haddan tashqari o'zini maxsus hisoblash Grandioz shaxsiyat buzilishi, egolarni oshirib ko'rish

-Paranoik fikrlar Stress va guilt tufayli yuzaga kelgan paranoid reaksiyalar

Ichki ziddiyat Kognitiv dissonans, axloqiy stress.

-Depressiya va ruhiy tushkunlik Qotillikdan keyingi ruhiy tiklanish jarayoni

-Iymon va kechirim izlash Moral va psixologik muvozanatni tiklash instinkti

Ruhiyatning o'zgarishi va psixologik tahlil

Asar davomida Raskolnikov ruhiyati asta-sekin o'zgaradi:

Boshlanish — o'zini yuqori hisoblash, qotillikka ruhiy tayyorgarlik

Jarayon — jinoyat, ichki stress, guilt va paranoid fikrlar

Yakuni — ruhiy tushkunlik, insoniylikni anglash, kechirim va iymon orqali psixologik tiklanish

Psixologiyada bu — traumatik tajriba natijasida shaxsiyatning qayta shakllanishi.

Xulosa. Natijada, Raskolnikov qilgan harakat — shaxsiyat buzilishi va og'ir psixologik kechinmalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan axloqiy xato sifatida qaraladi. Keyinchalik hayoti yaxshi bo'lishi mumkin lekin vijdoni uni hech qachon tark etmaydi. Raskolnikov qilgan jinoyat — axloqiy jihatdan xato bo'lib, uning ruhiy va psixologik holatiga og'ir ta'sir ko'rsatdi. U o'zini "maxsus inson" deb hisoblab, jamiyat va axloqiy qoidalardan ustun turishga intildi, bu esa uni ichki ziddiyat va kognitiv dissonansga olib keldi. Jinoyat sodir etilgach, Raskolnikov guilt hissi bilan og'irladi, doimiy ichki iztirob, uyqusizlik, ruhiy tushkunlik va paranoik fikrlar bilan azoblandi. Bu holatlar uning shaxsiyatining buzilishi va ruhiy stressining asosiy belgilari sifatida namoyon bo'ldi. Uning ruhiy holati shuni ko'rsatadiki, insonning egoining haddan tashqari yuqori bo'lishi va o'zini jamiyatdan ustun hisoblashi, hatto ongli qarorlar qabul qilsa ham, axloqiy jihatdan xato harakatlarga olib kelishi mumkin. Raskolnikov insonlarni emas, balki insoniylikni o'ldirgan edi. Hayotni faqat oq va qora rangdan iborat deb bilganlar har doim oldimda ikki yo'l bor deb o'ylaydi vaholanki, tug'ilishing bilan peshonanga yozilgan taqdiring ham sen qilgan qarorlar tufayli o'zgarishi mumkin. Hayotingda qanchalik yaxshi inson bo'lishni istasang ham kimningdir hikoyasida baribir o'sha razil va axmoq inson bo'lib qolasan. Shunday ekan har kimning ichida Raskolnikov bo'lishi mumkin, farq shundaki sen qaysi yo'lni tanlashingdir.

INSON TAFAKKUR MAHSULIDIR U NIMANI O'YLASA SHUNGA AYLANADI.

Mahadma Gandi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dostoyevskiy F.M. Jinoyat va jazo. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019.

2. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/115465>
 3. Freud Z. Psixoanalizga kirish. — Toshkent: Fan, 2004.
 4. Freud Z. The Ego and the Id. — New York: W.W. Norton & Company, 1989.
 5. Fromm E. Inson qalbi anatomiyasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
 6. Jung C.G. Inson va uning ramzlari. — Toshkent: Sharq, 2008.
 7. Karimov S. Badiiy adabiyotda psixologizm. — Toshkent: Universitet, 2016.
 8. Xolmirzayev N. Rus adabiyotida ruhiy tahlil masalalari. — Toshkent: Fan, 2014.
 9. Raxmonov A. Psixologiya asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
 10. Bakhtin M.M. Dostoyevskiy poetikasining muammolari. — Moskva: Akademiya, 2002.
- https://inlibrary.uz/public/journals/68/submission_115465_115465_coverImage_uz_UZ.jpg